


“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktor o‘rinbosari



T.Mashanpin

2026-yil “23” - yanvar

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining
6-son yig‘ilish bayoni

Toshkent shahar

2026-yil 23-yanvar

Raislik qildi: Direktor o‘rinbosari **T.Mashanpin**

Qatnashdilar: O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi prokurori yuridik fanlari doktori **T.Safarov**,
Agentlikning boshqarma, bo‘lim va tizim tashkilotlari rahbar xodimlari (*ro‘yxat bo‘yicha*).

Kun tartibi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda 2025-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-sonli Farmonini muhokamasini keng tadbqiq etish to‘g‘risida.

(T.Mashanpin, T.Safarov, Q.Raximov, U.Muxitdinov, M.Razzoqov, A.Olimov, T.Safarov, T.Mashanpin)

Yig‘ilishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda 2025-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-sonli Farmoni muhokamasi doirasida tadbiriga taklif etilganlar bilan Respublikamizda, shu jumladan Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada muvofiqlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar yuzasidan to‘xtalib o‘tildi.

Ma‘ruzachi **T.Safarov**, so‘ngi to‘qqiz yilda yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tilganligi, iqtisodiyot yangidan shakllanganligi, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoya kengaytirilganligi, qonun ustuvorligi mustahkamlanganligi, eng muhimi, islohotlar samarasi har bir mahalla, xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilayotganligini ta’kidlab, Prezidentimiz 2026-yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e’lon qilishini bayon etdi.

Shu bilan birgalikda, mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish (1); iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish (2); ichki bozorda talabni rag'batlantirish(3); kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish(4); ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish(5); zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarimizni davom ettirish (6) kabi ustuvor yo'nalishlarni olg'a surdilar.

Davlatimiz rahbari 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarayotganligi, yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtirilishi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinishini, zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlar davom ettirilishi, avvalo, 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilanishi, barcha davlat idoralarining 1 mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq funktsiya va vazifalari, 240 ta ma'lumot bazasi va axborot tizimi, 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinishini qayd etdi.

Shuningdek, Prezidentimiz korrupsiya-davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir deb, bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz, – *dedi davlatimiz rahbari*.

Barcha idoralarda komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etilishi, Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yilishi, Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytirilishini ta'kidladi.

2025-yil 30-dekabr kuni "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Prezidentning 270-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonda asosiy jihatlar, davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini takomillashtirish masalalari, raqamli komplaens tizimi, E-qaror platformasida ochiqlikni ta'minlash choralari, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyasini yanada yaxshilash, milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi joriy etilishi, sohada sun'iy intellektga asoslangan "Xavf-tahlil markazi" va "Raqamli komplaens" platformalari joriy etilishi, klasterni yaratish orqali barcha idoralar faoliyati yagona platformaga birlashishini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida preventiv mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan bir qator qo'shimcha vazifalar yuklatilganligi, xususan, davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etilishi, faoliyatini baholash va sertifikatlash tartibini belgilanishi, bu orqali sohaga milliy sertifikatlash menejment tizimi joriy etilib, mazkur sertifikat xalqaro ISO 37001 standartining muqobiliga aylanishi ustida to'xtaldi.

Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan vazifa va funksiyalarini raqamlashtirish bo'yicha minimal talablar va an'anaviy shaklda ko'rsatilayotgan 300 dan ortiq xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha talablar ishlab chiqilishi nazoratga olinganligini qayd etdi.

Bundan tashqari, Respublika Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida tashkil etilayotgan "Xavf-tahlil markazi" tuzilayotganligi, markazga vazirlik va idoralarning 30 ga yaqin ma'lumot bazalari integratsiya qilinib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni nazorat qilishga sun'iy intellekt joriy etilishi, masalan, "soliq.uz" bazasi orqali tashkilot ta'sischi'lari to'g'risidagi ma'lumot bilan davlat xaridlarida afillanganlik, "Elektron jinoiy-huquqiy statistikasi" tizimi orqali korrupsiyaga oid jinoyatlar va ularning sabablari, "my.mehnat.uz" bazasi orqali yaqin qarindoshlarning bevosita biri ikkinchisiga bo'ysunuvida ishlashi aniqlanishi mumkinligi ma'ul qilindi.

Keyingi masala yuzasidan tizim tashkilot xodimlarini qiziqtirgan savol va takliflarga mas'ul xodimlar tomonidan javoblar berildi.

Hususan, jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarini o'rnatilgan tartibda inson omillarisiz amalga oshirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilayotganligi, asosiy masala, tadbirkorlarning og'irini yengil qilish, byurokratik to'siqlar, ortiqcha qog'ozbozlik va korrupsion holatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sinov laboratoriyalari va muvofiqlikni baholash organlari tomonidan o'z infratuzilmasini rivojlantirish, moddiy texnik bazasini yangilash va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash hamda malakali mutaxassislarni jalb qilish rejalashtirilganligi, shu bilan birga, Agentlik tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi (shu jumladan, yagona integrator "Uzinfocom") bilan birgalikda "Texnik tartibga solish" milliy axborot tizimi ishlab chiqilib, joriy qilinganligi va "tris.uz" elektron manzilida ishga tushirilganligi juda yaxshi samarani berayotganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, Agentlik va tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf qilish borasida asosli takliflar berildi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Yig'ilishda berilgan ma'lumotlar ijro uchun qabul qilinsin;

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi (Q.Rahimov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 270-son Farmoni ijrosi ta'minlasin;

3. MTJEMB (A.Asqarov) **bir xafta muddatda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 270-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, ISO 37001 standartini joriy etish va sertifikatlashtirish bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritсин;

4. Moliya-iqtisod bo'limi (A.Olimov) Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va tizim tashkilotlardan loyiha ofisi faoliyatiga jalb etilgan xodimlar uchun ushbu faoliyat davrida ularning oylik ish haqi va boshqa barcha qo'shimcha to'lovlari saqlab qolib, ekspert va mutaxassislarga o'rganish olib borilayotgan davlat organi yoki tashkilotining byudjetdan tashqari jamg'armasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qo'shimcha haq to'lanishi yo'lga qo'yilsin;

5. Raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi (F.Usmenov):

5.1. "Texnik tartibga solish" milliy axborot tizimida shakllanadigan barcha hujjatlarni QR-kod orqali elektron tasdiqlash va raqamlashtirish orqali hujjatlarini qalbakilashtirilishini oldini olish choralari ko'rish ishlari jadallashtirilsin;

5.2. Agentlik va uning tizim tashkilotlarining tegishli axborot tizimlari va resurslari zaruratga ko'ra 2026 yil 1 iyunga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "Raqamli komplaens" axborot tizimiga o'rnatilgan tartibda integratsiya qilish choralari ko'rilsin;


5.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi faoliyatini raqamlashtirish va unda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilsin va rahbariyatga taqdim etilsin.

6. Agentlik va tizim tashkilotlarda xulq-atvor qoidalari, korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'quvlar tashkil etilsin;

7. Direktorning matbuot kotibi-axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchi (A.Rasulov) va korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi (Q.Raximov) bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari ta'minlasin;

8. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yozma ravishda axborot berilsin.

Majlis kotibi



D. Ziyamatov